

“YO‘Q” RADIFLI G‘AZALNING QIYOSIY LINGVOPOETIK TAHLILI (Navoiy, Muqimiy va Barqiy ijodi misolida)

Gulnoza Turdiyeva Sayfullayevna,

O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

ilmiy tadqiqotchi, Toshkent, O‘zbekiston,

<https://orcid.org/0009-0000-0312-8745>

turdiyeva806@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy va Abdug‘ofirjon qori Barqiy ijodida uchraydigan bir xil radifli “Yo‘q” g‘azalining leksik birliklari lingvopoetik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Turkiy adabiy til tarixida Navoiy va undan ham avvalgi davrlarda rivojlangan she‘riy an‘analar XX asr boshlarigacha faol davom etib, keyinchalik turli hududiy maktablarga ajralgan murakkab lingvopoetik tizimni tashkil etadi. Tadqiqotning maqsadi turli makon va davrlarda yaratilgan g‘azallarda leksik birliklarning ishlatilish xususiyatlari, sinonim va antonimlar, metaforik tizim, metonim ko‘chishlar, epitet, takror kabi poetik vositalarning o‘zaro munosabatini, umuman, badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: Navoiy, Muqimiy, Barqiy, chig‘atoy adabiy tili, leksik birlik, lingvopoetika, metafora, metonimiya, sinonim, antonim, takror, epitet, semantik gradatsion tizim, “Yo‘q” radifli g‘azal, reduksiyalashgan ijtimoiy metafora, lingvopoetik kontinuum.

Abstract. This article presents a comparative linguopoetic analysis of the lexical units found in the ghazals with the same refrain (“Yo‘q” – “No/There is not”) in the works of **Alisher Navoi**, **Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy**, and **Abdug‘ofirjon qori Barqiy**. The poetic traditions that developed in the history of the Turkic literary language during and even before Navoi’s era continued actively until the beginning of the twentieth century, subsequently forming a complex linguopoetic system that evolved into various regional literary schools. The aim of the study is to identify the specific features of lexical unit usage in ghazals created in different periods and geographical contexts, as well as to examine the interrelations of poetic devices such as synonyms and antonyms, metaphorical systems, metonymic transfers, epithets, and repetitions. In general, the research focuses on revealing poetically actualized linguistic means functioning within the artistic text.

Keywords: Navoi, Muqimiy, Barqiy, Chagatai literary language, lexical unit, linguopoetics, metaphor, metonymy, synonym, antonym, repetition, epithet, semantic gradational system, ghazal with the refrain “Yo‘q”, reduced social metaphor, linguopoetic continuum.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный лингвопоэтический анализ лексических единиц, встречающихся в газелях с одинаковым радифом «Йўқ» («Нет») в творчестве **Алишера Навои**, **Мухаммада Аминходжи Мукуми** и **Абдугофирджона кори Барки**. Поэтические традиции, сформировавшиеся в истории тюркского литературного языка в эпоху Навои и даже ранее, активно сохранялись вплоть до начала XX века, образовав впоследствии сложную лингвопоэтическую систему, разделившуюся на различные региональные литературные школы. Цель исследования заключается в выявлении особенностей употребления лексических единиц в газелях, созданных в разные исторические периоды и в различных культурных пространствах, а также в анализе взаимосвязи таких поэтических средств, как синонимы и антонимы, метафорическая система, метонимические переносы, эпитеты и повторы. В целом исследование направлено на определение поэтически актуализированных языковых средств, функционирующих в художественном тексте.

Ключевые слова: Навои, Мукуми, Барки, чагатайский литературный язык, лексическая единица, лингвопоэтика, метафора, метонимия, синоним, антоним, повтор, эпитет, семантическая градационная система, газель с радифом «Йўқ», редуцированная социальная метафора, лингвопоэтический континуум.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida XV asrdan XX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davr turkiy adabiy tilning shakllanishi, rivojlanishi va hududiy differensiallashuvi bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda shakllangan Chig‘atoy adabiy tili turkiy xalqlarning ko‘plab hududlari va XX asr boshlarida Shinjong uyg‘ur-o‘zbek adabiy muhitiga qadar keng tarqalgan va asrlar davomida tilning turli xususiyatlari jihatdan transformatsiyalarga uchragan. Ushbu jarayon tarixiy-geografik tarqalishgina emas, balki adabiy tilning ichki strukturasidagi metaforik tafakkur hamda poetik tasvir vositalar rivojida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Alisher Navoiy o‘z ijodi orqali Chig‘atoy adabiy tilini yuqori darajadagi metaforik-falsafiy tizimga aylantirgan bo‘lsa, XIX asr oxirida Qo‘qon adabiy muhitida, XX asr boshlarida Shinjong o‘zbek she‘riyatida bu tizim xalqona ifoda va ijtimoiy mazmun bilan boyigan.

Ushbu uch bosqich – Shinjonda yashagan o‘zbek shoiri Barqiyning “Yo‘q” radifli g‘azali Alisher Navoiy, XIX asr Qo‘qon adabiy muhiti, xususan, Muqimiy ijodi bilan qiyosiy tarzda leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Metodologiya. Tadqiqotda lingvopoetik tahlil, qiyosiy-filologik yondashuv hamda semantik maydonlar nazariyasi qo‘llanildi. Tahlil jarayonida Alisher Navoiy, Muqimiy hamda Barqiy g‘azalining leksik birliklari – sinonimik va antonimik qatorlar, metafora, metonimiya, epitet, takror va gradatsiya kabi badiiy vositalar o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Navoiy, Muqimiy hamda Barqiy – bu uch mumtoz shoirning g‘azallarini ushbu maqolada g‘azal va uning “yo‘q” radifi, leksik birliklarining lingvopoetik xususiyatlari birlashtiradi.

Alisher Navoiyning “Yordin ayru ko‘ngul mulkedurur sultoni yo‘q” deb boshlanuvchi mashhur g‘azalida “Yordan ayrilgan ko‘ngil” metaforik ravishda “sultonsiz mulk” sifatida tasvirlanadi.

Yordin ayru ko‘ngul mulkedurur sultoni yo‘q,

Mulk kim, sultoni yo‘q, jismedururkim joni yo‘q.

“Bu baytda asosiy diqqat ko‘ngulning yordan ayrilmog‘i mumkin emasligi, chunki ko‘ngul mulkning joni-sultoni yordir, degan fikrga qaratilgan bo‘lsa-da, ammo shoir bu fikrni kuchaytirish maqsadida uni ijtimoiy-siyosiy hayotdagi hodisa — mamlakatning sultonsiz (boshqaruv boshlig‘i ma‘nosida) bo‘lishi mumkin emasligi, ya‘ni sulton (boshqaruv boshlig‘i) mamlakatning joni ekanligi bilan qiyoslaydi. Bu bilan Alisher Navoiy o‘zining jamiyat va uning boshqaruvi (sulton, shoh) to‘g‘risidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifoda etadi”(B.Valixojayev)

She‘r davomida “sultoni yo‘q”, “joni yo‘q”, “gul-u rayhoni yo‘q” kabi birliklar orqali semantik gradatsion tizim (tadrij) hosil qilinadi.

Matn quyidagi falsafiy tadrij orqali rivojlanadi:

1. Ko‘ngil – sulton yo‘q
2. Jism – jon yo‘q

3. Tufroq – gul yo‘q
4. Kecha – oy yo‘q
5. Zulmat – hayot yo‘q
6. Do‘zax – jannat yo‘q

Baytdan baytga metaforik zanjir ko‘ngil – jism – zulmat – do‘zax ko‘rinishida kuchayib boradi. “Yo‘q” radifi faqat inkorni emas, balki mavjudlikning bosqichma-bosqich yemirilishini ifodalaydi. Bu tizimda metafora markaziy semantik mexanizm bo‘lib, borliq va yo‘qlik o‘rtasidagi ontologik qarama-qarshilikni yaratadi.

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor,

Hajrdin dardi va **lekin vasldin darmon yo‘q** maqta’-baytda Alisher Navoiy ishqning murakkab ruhiy tabiatini yuksak badiiy vositalar orqali ifodalaydi. “Ey Navoiy” murojaati iltifot san’ati bo‘lib, shoirning o‘ziga murojaat qilishi orqali ichki kechinma yanada samimiy va dramatik tus oladi, shoir go‘yo o‘zi bilan suhbatlashadi, dardini o‘zi e’tirof etadi. An’anaviy mumtoz she’riyatda vasl odatda darmon, najot sifatida talqin qilinadi. Ammo bu baytda shoir kutilmagan poetik burilish qiladi: hajrdan dard bor, vasldan esa darmon yo‘q va bu o‘rinda oshiqning nihoyatda murakkab holati ifodalangan. Ya’ni hijron azob beradi, biroq visol ham qalbdagi iztirobni yo‘qota olmaydi. Navoiyning boshqa ijod namunalari tahlillaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, baytning tasavvufiy talqiniga ko‘ra *hajr* banda va Haq orasidagi uzoqlik-sog‘inch, *vasl* ilohiy yaqinlik-uchrashuvdir, ammo komil oshiq uchun visol ham yakun emas. Chunki haqiqiy ishqda talab va intilish cheksiz davom etadi. Shu sababli “vasldin darmon yo‘q” degan fikr tasavvufiy ma’noda ruhiy kamolotning nihoyasizligini ifodalaydi. “Vasldin darmon yo‘q” birikmasida kuchli paradoks mavjud. Ma’lumki, odatda oshiq uchun visol shifo, shoir esa buning aksini aytadi: ishqning cheksizligi, ruhiy iztirobning tugamasligi, komil ishqda osoyishtalik bo‘lmasligi anglatiladi.

Umuman, she’rdagi sinonim qatlam (xumor-mastliq, uqubat-dard) falsafiy ma’noni kuchaytirsa, antonimik juftliklar (bor-yo‘q, nur-zulmat, qaro tufroq-gul-u rayhon, qarong‘u kecha-mohi tobon, do‘zax-ravzayi rizvon, hajr-vasl) semantik kontrastni yuzaga keltiradi. qaro tufroq. qarong‘u kecha epitellari, metafora va gradatsiya ushbu she’riy matnda Navoiy poetikasining markaziy mexanizmi hisoblanadi.

Muqimiyga nisbat beriladigan “Yordin ayrilib ko‘ngulga orom yo‘q” deb boshlanuvchi “Yo‘q” radifli g‘azalida esa leksik tizim soddalashib, xalqona ifoda shakllariga yaqinlashadi. Muqimiy an’anasida leksik birliklar ijtimoiy mazmun bilan boyib, emotsional ekspressivlik kuchayadi. she’rda sinonimik qator (vafo – sadoqat-mehr, olam-davron), hamda antonimik qarama-qarshilik (ayriliq-rom, dard-darmon, g‘am-sodiq davron) kuchli ifodalanadi. Sinonimik qatorlar ijtimoiy qadriyatlarni ifodalasa, antonimik strukturalar axloqiy tanqidni kuchaytiradi.

Zamon ahli ichra vafo topmoq mushkul,

Bu kulbam ichra biror mehribon yo‘q misralarida shoir kulba metaforik obrazida dunyo, ko‘ngilni nazarda tutib, o‘zining ichki yolg‘izligi, ruhiy ahvoli, mehr va sadoqatga bo‘lgan ehtiyojini ta’sirchan badiiy tasvir orqali ifodalaydi.

Muqimiy der: bu olam ichra netay,

G‘amimga biror sodiq davron yo‘q. Maqta‘da shoir dunyodagi bevafoqlik va yolg‘izlikni ifodalab, o‘z g‘amiga hamdard va sodiq inson yo‘qligidan shikoyat qiladi. “Sodiq davron” birikmasi shaxslantirilgan (tashxis), matnda “vafo yo‘q”, “inson yo‘q”, “mehribon yo‘q” kabi takroriy konstruksiyalarda radif falsafiy emas, balki hissiy iztirobni kuchaytiruvchi ritmik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiy til Muqimiy ijodida chig‘atoy adabiy tilining xalqona transformatsiyasini ifodalaydi. Leksik birliklarning soddalashuvi xalq og‘zaki nutqiga yaqinlashuv jarayonini ko‘rsatadi. Shinjong o‘zbek shoiri Barqiy (Barqiy nomi uzoq yillar mobaynida ommaga ayon bo‘lmay kelgan. U 1901-yil Qo‘qonda tug‘ilib, Qo‘qon madrasalarida va “Usuli Jadidiya” maktablarida tahsil olgan. 1930-yil ota-onalari bilan Shinjongga ko‘chib borgan. Barqiyning adabiy ijodi 1930-1950-yillarda nihoyatda sermahsul bo‘lgan, she‘rlari uslub jihatdan sharq mumtoz she‘riyatiga, “Sayohatnoma” uslubidagi she‘rlari esa shoir Muqimiyga ohangdosh)ning “Yo‘q” radifli g‘azalida chig‘atoy adabiy tilining so‘nggi bosqichlari namoyon bo‘ladi. Uning “*Tavba, tavba, ajabo, hech kimda bir vafo yo‘q, Sochilgani, sochilgan, to‘plariga iltijo yo‘q*” bayti bilan boshlanadigan matnida “yo‘q” radifi ijtimoiy tanqidning keskin ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda “vafo yo‘q”, “sado yo‘q”, “muddao yo‘q” kabi birliklar orqali jamiyatdagi axloqiy inqiroz tasviri yaratilsa, *Bir kimsaga ishanmak bul zamonda qolmabdur, G‘araz o‘z din o‘zgaga ahd-u kalom raso yo‘q* misralarida shoir zamonning ma’naviy inqirozini keskin ohangda ifodalaydi. “Bir kimsaga ishanmak” birikmasi orqali davrda sadoqat va e’tiqodning yo‘qligi ta’kidlanadi, “qolmabdur” fe’li esa qat’iy hukm ma’nosini kuchaytirib, umidsizlikni yuzaga keltiradi. Ikkinchi misrada “g‘araz” leksemasi semantik markaz sifatida inson xatti-harakatlarining manfaat asosiga qurilganini bildiradi. “Ahd-u kalom raso yo‘q” ifodasida *ahd–kalom* sinonimi ma’noni kuchaytirib, “yo‘q” radifi orqali badiiy inkor hosil qilinadi. Antonimik juftliklar Barqiy poetikasida asosiy strukturaviy elementlardan biri hisoblanadi. “sochilgan-to‘p”, “jannat-do‘zax” kabi qarama-qarshiliklar matnning semantik dramatzimini hosil qiladi.

Guruh-guruh kishilar bir narsaga zor-u zor,

Bir kishida mol-u nang, o‘zgada bir sado yo‘q baytidagi “zor-u zor” takrori muhtojlik holati ma’nosini yanada ta’sirli qiladi. Ikkinchi misrada keskin kontrast yaratiladi: “bir kishida mol-u nang” – ya’ni kimlargadir boylik va shon-sharaf, izzat borligi, “o‘zgada bir sado yo‘q” – boshqalarda esa hatto oddiy imkoniyat ham yo‘qligi orqali odamlar o‘rtasidagi boy-kambag‘allik tafovuti ochib berilgan. Mol-u nang – sado yo‘q kontekstual antonimligida “mol-u nang” – eski (mumtoz) adabiyot tilidagi birikma

bo‘lib, **mol** – boylik, mulk, pul – dunyo, **nang** – or-nomus, shon-sharaf, izzat, qadr ma’nolarini bildirib, shoir jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikni tasvirlaydi.

Ko‘zingni o‘yub bersang rahmat demagay senga,

Vojgundur kuning, Barqiy, bul yerda musaffo yo‘q maqta’sida shoir inson tabiatidagi noshukurlik va buzuq ma’naviy muhitni keskin qoralaydi, eng yuksak yaxshilik ham qadrlanmasligi ta’kidlanadi. “Vojgundur kuning” ifodasida kelajakning xavfli, xatarli va ayanchli ekanligi ogohlantiruvchi ohangda berilgan. “Bul yerda musaffo yo‘q” jumlasini orqali esa samimiy munosabatlar yo‘qligi umumlashtiriladi.

Umuman, misralarda shoirning ijtimoiy tanqidiy pozitsiyasi ifodalangan bo‘lib, takrorlar – baholovchi leksika orqali lingvopoetik jihatdan kuchli ochib berilgan. Leksik qatlamda *inson* umumiy jamiyat vakili sifatida metonimiya, *mol-u nang – sado yo‘q* qarshilantirish; *guruh-guruh, sochilgani-sochilgan, zor-u zor, tavba-tavba, yo‘q* takror sifatida matnning ritmik va ekspressiv kuchini oshiradi.

“Yo‘q” radifli har uchala g‘azalda shikoyat ohangi bor, “yo‘q” inkor birliklari takroriy pozitsiyada kelib, nafaqat grammatik inkor, balki ekzistensial baholash funksiyasini ham bajaradi. Navoiyda Yor-Alloh jamoli, Muqimiyda yor-sodiq do‘st, Barqiyda she’r yor obrazisiz mutloq ijtimoiy xarakter kasb etgan. Navoiyda yor, ko‘ngil, do‘zax, ravzayi rizvon; Muqimiyda yor, ko‘ngil, vafo, zamon; Barqiyda vafo, zamon, ko‘ngil, jannat-do‘zax kabi o‘xshash leksemalar matnning semantik asosini tashkil etib, ular orqali axloqiy inqiroz va ijtimoiy beqarorlik konsepti shakllantiriladi. Metaforik qatlam Barqiy g‘azallarida mumtoz chig‘atoy metaforasidan farqli: Navoiy ijodida metafora falsafiy-gradatsiyon model yaratgan bo‘lsa, Barqiyda u ijtimoiy haqiqatlar bilan cheklanadi. Har uch g‘azalda takroriy strukturalar, ayniqsa “yo‘q” birliklarining repetitiv qo‘llanilishi, matnda ritmik struktura va semantik urg‘u hosil qiladi. Bu holat Barqiy poetikasining og‘zaki nutqqa yaqinlashganini ham ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Barqiy g‘azallarining leksik tizimi chig‘atoy adabiy tilining mumtoz metaforik modeli va XIX asrning xalqona uslubidan soddalashgan, biroq semantik ekspressivlik va ijtimoiy baholash funksiyasi kuchaygan transformatsion bosqichni ifodalaydi.

LINGVOPOETIK QIYOSIY JADVAL

Lingvopoetik birliklar	Navoiy, Hirot, XV asr	Muqimiy, Qo‘qon, XIX asr	Barqiy, Shinjon, XX asr
Leksik qatlam	Arab-fors va turkiy qatlam uyg‘unligi	Xalqona turkiy leksika ustun, arab-fors qatlam kamaygan	Soddalashgan turkiy leksika, arab-fors elementlar
Asosiy obrazlar	Ko‘ngil, mulk, sulton, jon, ruh	Vafo, inson, zamon, mehr, ko‘ngil	Inson, vafo, sado, zamon, dunyo
Metafora turi	Falsafiy metafora (ko‘ngil - mulk)	Ijtimoiy-emotsional metafora	Reduksiyalashgan ijtimoiy metafora
Metonimiya	Cheklangan, konseptual (ko‘ngil-ruhiy olam)	O‘rtacha (inson jamiyat vakili)	Kuchli (inson-umumiy jamiyat modeli)
Sinonim	Falsafiy (xumor-mastliq,	Ijtimoiy sinonimiya (vafo	Cheklangan sinonimiya

	uqubat-dard)	– sadoqat-mehr, olam-davron),	(ahd-u kalom, vafo-nsoniylik)
Antonim	Ontologik: bor-yo‘q, nur-zulmat, qaro tufroq-gul-u rayhon, qarong‘u kecha-mohi tobon, do‘zax-ravzayi rizvon, hajr-vasl	Axloqiy: (ayriliq-orum, dard-darmon, g‘am-sodiq davron)	Ekzistensial: sochilgan-to‘p, jannat-do‘zax
Epitetlar	Yuksak poetik epitetlar (majoziy, estetik)	Emotsional epitetlar (xalqona ohang)	Ekspressiv-satirik epitetlar
Takror	Tadrijiy va falsafiy	Emotsional kuchaytiruvchi	Dominant stilistik vosita
Sintaksis	Murakkab, arabiy-forsiy qurilish	Soddalashgan, xalqona sintaksis	Juda qisqa, ritmik, og‘zaki nutqqa yaqin
Lingvopoetik markaz	Ontologik borliq (metafizika)	Ijtimoiy hayot, shikoyat	Axloqiy inqiroz va tanqid

Qiyosiy tahlil natijasida uch adabiy makon o‘rtasida aniq lingvopoetik evolyutsiya kuzatiladi. Shoirlar ijodida “yo‘q” radifi umumiy semantik markazga ega bo‘lib, u inkor va yo‘qlik konseptini ifodalaydi, biroq uning funksional yo‘nalishi turlicha: Navoiy asarida til falsafiy-metaforik tizim sifatida shakllangan bo‘lsa, Muqimiyda emotsional-ijtimoiy, Barqiyda esa til soddalashgan, lekin ijtimoiy tanqid va ekspressiv keskinlik kuchayib, satirik-ijtimoiy xarakter ustunlik qiladi. Metafora va gradatsiya Navoiyning matnida eng yuqori darajada, Barqiyda esa ekspressiv satira vositasida, Muqimiyda esa sodda xalqona ohangda namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Uch adabiy makon o‘rtasidagi qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Chig‘atoy adabiy tili bir markazdan ikkinchisiga ko‘chgan sari metaforik murakkablikdan ijtimoiy mazmun tomon o‘zining semantik strukturasi qayta tashkil etgan va yangi estetik funksiyalarni egallagan.

Barqiy g‘azali misolida Shinjon adabiy muhiti chig‘atoy adabiy an‘anasining so‘nggi transformatsion bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu bosqichda til soddalashgan, lekin semantik keskinlik kuchaygan, metaforik tizim esa ijtimoiy tanqid vositasiga aylangan. Sinonim va antonimlar ham ushbu rivojda turli vazifa oladi: Navoiyda ular falsafiy abstraksiyani ifodalasa, Muqimiy an‘anasida ijtimoiy mazmuni, Barqiyda esa ekspressiv tanqidni ifodalaydi.

Umuman olganda, ushbu “Yo‘q” radifli uch g‘azalda kuzatilgan lingvopoetik o‘zgarishlar o‘zbek-turkiy she‘riyatining tarixiy rivojini tizimli ravishda ifodalaydi, ya‘ni XV asr ijodida metafizik-falsafiy murakkablik ustun, XIX asrda xalqona-sotsial soddalashuv, XX asr boshidagi Barqiy ijodida esa ijtimoiy tanqid va semantik keskinlik yetakchi o‘ringa chiqqan deb baholanadi. Bu jarayon turkiy adabiy tilning ichki rivojlanishini ko‘rsatadi va uni bir markazdan ikkinchisiga o‘tuvchi lingvopoetik kontinuum (uzluksiz davom etuvchi bog‘liqlik) sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Navoiy A. *Xazoyin ul-maoniy*. Toshkent: G'afur G'ulom, 1989. Alisher Navoiy g'azallari. <https://tafakkur.net>
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2000.
3. Karimov N. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O'qituvchi, 2010. Muqimiy. *Asarlar*. Toshkent: Fan, 1958.
4. Каримова Ш. XX asr boshlari Shinjong o'zbek she'riyati // monografiya. – Toshkent: Press Print nashriyoti, 2025. – B.148.
5. Valixo'jayev B. *Chig'atoy adabiy tili tadqiqotlari*. – Toshkent: Fan, 1978. – 256
6. Botirxon Valixo'jayev. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (davri, zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi). Ikkinchi qism. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-alisher-navoiy-davri-2.html> 2023

